



MAVZU: USTOZLIK XAM, SHOGIRDLIK XAM OLIY QADRIYAT

*Buxoro viloyati Vobkent tuman 1-son politexnika texnikumi Tarix va Davlat
huquq fani o'qituvchisi:*

Maxfuza Karomova

Anotatsiya. *Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lim tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, bugungi kunda yosh avlodni har jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb muammolardan etib belgilandi. Shuningdek inson ma'naviyatini shakllantirishda estetik tarbiyaning o'rni kata ma'no va mazmun kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Komil inson, tavoze, adab, himmat, muruvvat, doxil, axloqiylik, adolatlilik, estetik tarbiya, nafosat tarbiyasi.*

Uzbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy kadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan keng ko'lamdagi sa'y-xarakatlar amalga oshirilmoqda. Istiqlol sharofati bilan ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaxo ma'naviy meros, unutilgan qadriyatlarni kayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat dasturi darajasida amalga tatbiq etilmoqda. Milliy an'ana va kqadriyatlar qaytadan qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda nafaqat fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish omiliga, balki ta'lim oluvchining bo'sh vakqini mazmunli



tashkil etish, ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda, ijodiy ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishga qaratilmoqda.

Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'lik. O'tmish madaniy-pedagogik meros va an'analar yoshlar tarbiyasi uchun muxim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani samarali tashkil etishda "Ustoz-shogird" an'analari muxim sanaladi. "Ustoz-shogird" an'analari - yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir suz bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Yana bir xarakterli jixati shundaki, undan foydalanish natijasida ta'lim oluvchida o'z imkoniyatlariga ishonch, vaziyatni to'g'ri baxolash xamda irodaviy sifatlar shakllanadi, qolaversa talabaning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi - yurt ravnaqiga o'zining munosib xissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, faxm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning uzi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim.

Qadimdan ustoz-shogirdlik an'analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo'l- yoriq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan xamda o'zidan keyin ish-tajribani, bilim va maxoratni avloddan- avlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan. "Ustoz-shogird" munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish;
- yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish;
- shogirdning ruxiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish;



- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish;

- muvaffaqiyatni ko'zlagan xolda olg'a odimlash;

- ijobiy kaytuvchan alokani o'rnatish;

- tarbiyada turli xil ilg'or usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish;

- tarbiya jarayonida ustozning xar tomonlama: ma'naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bo'lishi;

- burch, mas'uliyat, javobgarlik xissini shakllantirib borish va xokazo.

Shuningdek, ustoz-shogird an'analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muxim o'rin tutadi:

- onglilik va faollik, ya'ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning uziga xos jixatlari, moxiyatini ongli tarzda tulik anglab yetish, uning istiqboli va ravnaki yo'lda faollik bilan xarakat kilish;

- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;

- ta'lim-tarbiyaning turmush, xayot bilan chambarchas bog'likligini inobatga olish;

- mustaqillikka, ijodiy izlanishga yo'naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'likligini xisobga olish;

- o'qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab ko'yilgan anik mantiqiy tartibga ega bo'lishi;

- shogirdning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimida "Ustoz-shogird" an'analaridan foydalanish ko'zlangan samarani beradi. Pedagogik ta'limot g'oyalariga ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, ya'ni muayyan faoliyatni amalda bevosita bajarish orqali shakllanadi. "Ustoz-shogird" an'anasi esa o'quvchilar, talaba- yoshlar xamda yosh pedagoglarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, pedagogik faoliyat jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan xolda yondashishi, shogirdagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi bilan axamiyatlidir. Bu kabi xolatlar yoshlarda nafaqat mexnat va ishlab chiqarish faoliyatiga



mas'uliyat bilan yondashish, balki o'zgalar mexnatini qadrlash, xalol mexnat qilish, mexnat samaralaridan g'ururlanish kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni xam tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlari, an'analari, axloq-odob qoidalariga amal qilishda. xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga aloxida e'tibor berish va bu borada ustozlar o'z kuchi, aql-zakovotini ayamasliklari lozim. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, xozirgi davrda kelajak avlodning Vatan ravnaqi sari ishonch bilan odimlab borishida ularning ma'naviyati, milliy o'zligini anglashi kechiktirib bo'lmas zarur vazifalardan xisoblanadi.

Alisher Navoiy "Vaqfiya" asarida, "Butun osmon va osmondagi jamiki narsalar, butun yer yuzi va yer yuzidagi jami narsalar, xamma dengizlar va unda mavjud bo'lgan xamma narsalar, xamma mamlakatlar va ularda bor jami ne'matlar - jami eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt va saodati uchun yaratilgan, bularning bari insonga xizmat qilmog'i kerak", - deb yozgan edi.

Demokratiya va bozor iqtisodiyotining bosh talabi xam shundan iborat. Xamonki, barcha qulayliklar inson uchun yaratilar ekan, uni yaratuvchi shaxs xam barkamol inson bo'lmogi, ushbu buyuk maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya tizimi esa mukammal bo'lmogi zarur.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli taraqqiyotning barcha soxalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar bo'lg'usi fuqarolarni turli xil fazilatlarga ega bo'lishi zarurligini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. – T.: Sharq nashriyot – matbaa konserni. 1997. 4 – 19 – b.



2. Sh. M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Prezidenti „Milliy Tiklanishdan Milliy yuksalish sari” T.: 2020.
3. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. „Fidokor“ gazetasi muxbiri savollariga javoblar. – T.: O'zbekiston, 2000.
4. Sanobar Nishonova „Komil Inson tarbiyasi” T.: Istiqlol 2003.
5. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 1993.